

CHINGIZ ABDULLAYEVNING “OILA SIRLARI” ROMANI VA O‘LMAS UMARBEOVNING “YOZ YOMG‘IRI” QISSASIDA SYUJET VA KOMPOZITSIYA

Abdullayeva Nasiba Chori qizi

Termiz davlat universiteti Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyotshunosligi) magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisdan o‘zbek adabiyoti vakili Chingiz Abdullayevning “Oila sirlari” romani va o‘zbek yozuvchisi O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” qissalari asosida detektiv adabiyotining syujet va kompozitsiyasi o‘rganilgan va atroflicha yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR: ekspozitsiya, tugun, rivojlanish, yechim, voqealar dinamikasi, kompozitsiya uslubi, timsol va ramzlar.

ABSTRACT: In this thesis, the plot and composition of detective literature based on the novel “Family Secrets” by the representative of Azerbaijani literature Chingiz Abdullayev and the short stories “Summer Rain” by the Uzbek writer Olmas Umarbekov are studied and covered in detail.

KEY WORDS: exposition, node, development, solution, dynamics of events, style of composition, symbol and symbols.

KIRISH: Adabiyotda syujet va kompozitsiya muhim elementlar bo‘lib, ular asarning mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi sifatida qo‘llab, insoniy munosabatlar, ijtimoiy muammolar va shaxsiy hayot ziddiyatlarini o‘rganadi. Chingiz Abdullayevning “Oila sirlari” romani sarguzasht va detektiv janriga mansub bo‘lib, insoniy munosabatlar va oila ichidagi yashirin hodisalarga bag‘ishlangan. Roman oila hayotidagi kutilmagan sirlarga asoslanib, o‘quvchini hodisalar rivojini kuzatishga majbur qiladi. “Yoz yomg‘iri” qissasida insoniy munosabatlar, oilaviy ziddiyatlar va mehr-muhabbatning qayta tiklanishi markaziy mavzu sifatida ko‘tarilgan. Asar qahramonlarining ichki kechinmalari va hayotiy dramatism voqealar rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

MUNOZARA VA MUHOKAMALAR

“Badiiy asarlarda voqealar borishida, xarakterlar taqdirida birdan kutilmagan keskin o‘zgarishlar bo‘ladi. Bu esa asarda yangi-yangi tugunlarni keltirib chiqaradi, kitobxonni qiziqishni kuchaytiradi. Ana shu tugun va yechimlarda xarakterlar mantiqi, voqea va xarakterlar rivojlanishi tarixi namoyon bo‘ladi. Tugun va yechimlar o‘z-o‘zidan xarakterlar rivojlanishini ko‘rsatmaydi. Xarakterlar

va voqealarning rivojlanishi tarixi ana shu momentlar vositasida ochiladi. Syujetni qarama-qarshiliklar, xarakterlarning rivojlanishi tarixi, asardagi voqealar oqimi deb ta'riflashda asosan yirik nasriy va dramatik asarlarga xos xususiyatlar ko'zda tutilgan."¹ "Yoz yomg'iri" qissasida insoniy munosabatlar, oilaviy ziddiyatlar va mehr-muhabbatning qayta tiklanishi markaziy mavzu sifatida ko'tarilgan. Asar qahramonlarining ichki kechinmalari va hayotiy dramatism voqealar rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Asardagi Syujet elementlari: Boshlanish (Ekspozitsiya)- oila ichidagi oddiy, lekin chuqur muammolar, bir-birini tushunmaslik va begonlashuv tasvirlangan. Tugun- Voqealar zanjiri biror kutilmagan hodisa orqali keskinlashib qahramonlarning ruhiy iztiroblari chuqurlasha boradi. Rivojlanish-qahramonlar o'zaro ziddiyatlarni hal qilish yo'llarini qidiradi. Kechirimlilik va insoniy qadriyatlar namoyon bo'lgan. Klimaks- hal qiluvchi voqea sodir bo'lishi bu oila a'zolarini birlashtiradi. Tugash (Yechim)- oila a'zolari orasidagi muammolar hal bo'ladi va ular yangi bosqichga qadam bosadi. Ba'zan syujetni ham shaklga kiritib ketishadi. Biroq syujetni butunlay shaklga kiritish noto'g'ri. Chunki asarning asosiy konflikti syujetda ochiladi. Demak, syujet faqat shakl emas, mazmunga ham aloqador sanaladi. Syujetda shakl-mazmun birga aks etadi.

Detektiv janr asarlarining kompozitsiyasi murakkab va puxta o'ylangan bo'lib, asar davomida o'quvchini sirlarni ochishga jalb etadi. Bu janrda kompozitsiya voqealarning mantiqiy, izchil rivojlanishi va asar ohangini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" qissasida kompozitsiya tuyg'ularning ramziy ifodasi: Yoz yomg'iri voqealar va qahramonlar ichki dunyosining o'zgarishini ramziy tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik chuqurlik: Har bir qahramonning ichki dunyosi, ularning kechinmalari va qarorlari chuqur tahlil qilinadi. Linearlik: Voqealar aniq ketma-ketlik asosida tasvirlanadi, ortga qaytishlar yoki murakkab vaqt almashishlari mavjud emas. Odamiylik va qadriyatlar: Asar davomida insoniy munosabatlar, mehr-muhabbat va oila qadriyatlari asosiy mavzular sifatida ko'tariladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Oila sirlari"romani klassik detektiv kompozitsiyaga ega bo'lib, unda intriga², sirlarni ochish jarayoni va dramatik yakun mavjud. Bu asar o'quvchini sirlarni ochishga jalb qilish orqali detektiv janriga xos asosiy elementlarni o'zida mujassamlashtiradi va yaxshi misol bo'la oladi. "Yoz yomg'iri" qissasining kompozitsiyasi sodda, lekin mazmunan boy va ta'sirchan.

¹<https://newjournal.org/new/article/view/1535/1379>

²[intriga - Vikilug'at](#)

Asardagi voqealar ketma-ketligi, qahramonlar ichki dunyosining tahlili va hissiy drammatizm insoniy kechinmalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yoz yomg'iri ramzi orqali muallif inson qalbining yangilanishi va poklanishini o'quvchiga yetkazishga erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Xaydarova Gullola Xoshimjonovna. BADIY ASARDA SYUJET VA KOMPOZITSIYANING IFODALANISHI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. 2022.
2. Arxiv.uz
3. <http://www.newjournal.org/>